



Jizzax davlat
Pedagogika
universiteti

TARIX FAKULTETI



TARIX va JAMIYAT

JOURNAL 2023



№5

HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ



TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

2023-yil 5-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, o'qitish metodikasi

Bosh muharrir: Pardayev A.H. JDPU, tarix fakulteti dekani,
t.f.n., dotsent.

Bosh muharrir o'rinbosari: Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.

Mas'ul kotib: Saidov J.O. JDPU, Tarix fakulteti o'qituvchisi

TAHRIRIYAT A'ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dotsent
8. G'oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
15. G'ofurov J.I – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o'qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o'qituvchi

Dizayner va sahifalovchi: Axmurodov D.Q

Mustaqillik davrida G'allaorol tumani va uning salohiyati

Xudoyorov O'ktam Boyzaqovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tarix fakulteti umumiy tarix o'qituvchisi

Zarpullayev Alisher-JDPU, Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik davrida G'allaorol tumani va uning salohiyati haqida hamda ushbu tumanning ma'muriy hududiy birliklari haqida muallifning ma'lumotlari berilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, G'allaorol, Oydinsoy, Qo'ng'irtepa, Shahidtepa, Almantepa, Jalmantepa, Lapaktepa, Nushkent.

Abstract: This article provides the author's information about the Gallaorol district and its potential during the period of independence, as well as about the administrative territorial units of this district.

Key words: Uzbekistan, Gallaorol, Oydinsoy, Kongirtepa, Shahidtepa, Almantepa, Jalmantepa, Lapaktepa, Nushkent.

Аннотация: В данной статье представлены авторские сведения о Галлаорольском районе и его потенциале в период независимости, а также об административно-территориальных единицах этого района.

Ключевые слова: Узбекистан, Галлаорол, Ойдинсой, Конгиртепа, Шахидтепа, Алмантепа, Джалмантепа, Лапактепа, Нушкент.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda tarix fani rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarildi va ijtimoiy tarix bilan bog'liq tadqiqotlar ko'lamining kengayishiga olib keldi. "Har qanday sivilizatsiya ko'plab millatlar, xalqlar, elatlar harakatining va sezilarli ta'sirining mahsulidir. Qisqa qilib aytganda, bosqinchilar, ko'chmanchilar kelib ketaveradi, ammo xalq boqiy bo'lib qolaveradi, uning madaniyati abadiy yashaydi" (I.A.Karimov. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". N. "Sharq" 1998, 4-bet.) ⁴O'zbekiston davlatchiligi va xalqi tarixini o'rganishning dolzarbligi O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoevning bir qator ma'ruzalaridan o'rin olgan bo'lib, bu haqda "Barchamizga ayonki, el-yurtimiz asrlar davomida ozod va erkin hayotni, adolatli jamiyatni orzu qilib yashadi. Bu muqaddas maqsad yo'lida jon olib, jon berib kurashdi, mashaqqatli sinovlarni mardona yengib o'tdi. Mustaqillik davrida O'zbekistoning ko'plab vohalari kabi Gallaorol tumani o'zining tarixi va iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini bosib o'tgan.

G'allaorol tumani 90 dan ortiq umumiy ta'lim, bolalar musiqa maktablari, kasb-hunar kollej-lari, tuman markaziy kutubxonasi va uning tarmoqlari, 11 madaniyat uyi, 15 klub muassasasi mavjud. Xotira bog'i barpo etilgan. Stadion,

⁴ I.A.Karimov. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". N. "Sharq" 1998, 4-bet.

sport zallari va boshqa sport inshootlari bor. Tuman markaziy kasalxonasi, 4 poliklinika, tukruqxona, 55 feldsher-akusherlik punkti, 10 qishloq vrachlik ambulatoriyasi, dorixonalar aholiga xizmat ko'rsatadi. Tuman hududidan Katta O'zbekiston trakti o'ttan. Oydinsoy (mil. av. I asr), Qo'ng'irtepa, Shahidtepa (I asr), Almantepa, Jalmantepa, Lapaktepa, Nushkent kabi tarixiy arxeologik yodgorliklar bor.

Mil. IV -V asrlarda hozirgi G'allaorol vohasi hududi Ustrushona mahalliy davlat tarkibida bo'lgan. IV - V asrlarda Ustrushona mustaqil mahalliy davlat sifatida faoliyat ko'rsata boshagan.

G'allaorol tumani sanoati. Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning yanvar-dekabr oylarida G'allaorol tumanida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini tomonidan 133,1 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,8 % ni tashkil etdi.

Hisobot yilida 100,8 mlrd. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2018 yil yanvar-dekabr nisbatan 106,2 foizni tashkil etdi. Jumladan, 40,3 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib umumiy hajmga nisbatan 40 % ni tashkil qilib, 60,4 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mollari (2018 yil yanvar-dekabr nisbatan mos ravishda 102,2 foiz tashkil qildi (G'allaorol tumani statistika bo'limi. 2019).

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz ichki bozorini tovar va xizmatlar bilan ta'minlashda, aholi bandligi va real daromadlarini oshirishda, resurslarni oqilona taqsimlash va ulardan samarali foydalanishda, ijtimoiy guruhlarning daromadlarining nomutanosibligini kamaytirishda, iqtisodiyotning turli tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yaxshilashda katta ahamiyatga ega bo'lib, islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy katalizatori hisoblanadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari bozor kon'yunkturasi o'zgarishlariga ham, iste'molchi talabi o'zgarishlariga ham tez moslashishga qodir bo'lib, iste'mol bozorida muvozanatni ushlab turishda muhim rol o'ynaydi, shuningdek, raqobat muhitining shakllanishiga xizmat qiladi. Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida tumanda 133,1 mlrd.so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi amalga oshirilgan bo'lib, shundan 133,1 mlrd.so'm kichik biznes sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin.

Davlat va xususiy sektorning o'zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta'minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O'z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o'laroq G'allaorol tumanida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko'rish mumkin. Tarmoq korxonalarini tomonidan joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 6,3 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi, shuning bilan birga davlat sektorida 0,48 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab

chiqarilib nodavlat sektorida 132,7 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarish, tashkil etdi (G'allaorol tumani statistika bo'limi materiallari).

Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib Jizzax viloyati va tumanlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmini tumanlararo hamda tumanlarni shahar ko'rsatkichlari bilan taqqoslash orqali tahlil qilish, sanoat mahsulotini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori dinamikasini ko'zatib borish, hududlardagi ustuvor vazifalarni va o'sish nuqtalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida joriy yilning yanvar-dekabr oylarida G'allaorol tumanida sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi 133,1 mlrd.so'mni tashkil etib, mazkur ko'rsatkich Jizzax viloyatining jami sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishida 111,8 % tashkil etdi. Tumanda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi aholi jon boshiga 785,5 ming.so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,6 % ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, tumanda iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 100,8 mlrd.so'mni tashkil qilib, Jizzax viloyatining jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishida 4,4% tashkil etdi. Tumanda ishlab chiqarilgan iste'mol tovarlari aholi jon boshiga 594,4 ming.so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,1% ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin.

G'allaorol tumanida xizmatlar sohasining o'sish suratlari. Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko'rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi. Natijada, 2019 yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 250,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. O'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,7 % ni tashkil etdi.

G'allaorol tumanida eng katta xizmat hajmi savdo xizmatlari (103,5 mlrd. so'm) va transport xizmatlari (80,0 mlrd. so'm)ga to'g'ri keladi. Eng kichik xizmat hajmi esa moliyaviy xizmatlar (0,2 mlrd. so'm) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (0,2 mlrd. so'm)ga to'g'ri keladi. G'allaorol tumani bo'yicha yuqori ulush savdo xizmatlari (41,3 %) va transport xizmatlari (31,9 %)da qayd etildi.

Uncha yuqori bo'lmagan ulush boshqa xizmatlar (1,8 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (1,2%), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (0,1 %) va moliyaviy xizmatlar (0,1 %)da qayd etildi G'allaorol tumanida o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (166,3

%), sogʻliqni saqlash sohasidagi xizmatlar (133,8 %) va taʼlim sohasidagi xizmatlar (117,8 %) da qayd etildi.

Uncha yuqori boʻlmagan oʻsish surʼatlari boshqa xizmatlar (94,7 %) va moliyaviy xizmatlari (97,8 %)da qayd etildi. Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri maʼlumotlariga koʻra, Gʻallaorol tumanida 2020 yil 1 yanvar holatiga roʻyxatga olingan yuridik shaxslar soni 1 394 tani tashkil qilib, shundan 1 370 tasi yoki 98,3 foizi faoliyat koʻrsatmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha roʻyxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo 307 ta (22,0 foizi), sanoat 259 ta (18,6 foizi), qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi 178 ta (12,8 foizi) va qurilish 106 ta (7,6 foizi) va sohalariga toʻgʻri keladi. Roʻyxatga olingan korxonalar umumiy sonining – 12,8 foizi davlat mulkini tashkil etib, qolgan – 87,2 foizi nodavlat mulki shaklidagi korxonalar, shundan 42,0 foizi xususiy korxonalar, – 1,0 foizi chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar, – 44,2 foizi boshqa korxonalar ulushiga toʻgʻri keldi.

Xulosa qiladigan boʻlsak, Gʻallaorolning qadimiyati haqidagi maʼlumotlar XX asr tarixchilaridan biri Ibroxim Ibn Muhammad al-Istaxriyning «Mamlakatlarning masofalari» kitobida, Ibn Xavqal, Muqaddasiylar asarlarida, Zaxiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida, akademik Ya. Gʻulomov, tarixchi arxeolog olim M. Masson, boshqa qator tarixchi olimlarning asarlarida bayon qilingan. Istaxriy, Ibn Xavqal, Muqaddasiylarning yozishicha, Sugʻddan Shosh (Toshkent) ga olib boradigan yoʻl yoqasida Xarakana shahri joylashgan. U Ustrushona davlati tarkibiga kiruvchi Xarakana viloyatining bosh shahri edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. “Tarixiy xotirasiz kelajak yoʻq”. N. “Sharq” 1998, 4-bet.
2. Gʻallaorol tumani statistika boʻlimi materiallari
3. Oʻzbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. T.: Sharq, 2000.
4. Oʻzbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. Oʻzbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. T.: Sharq, 2000.
5. Oʻzbekistonning yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil Oʻzbekiston tarixi. T.: Sharq, 2000.
6. Murtazayeva R.X. va boshqalar. Oʻzbekiston tarixi. Darslik. – T.: Yangi asr avlodi, 2005. -420 b.
7. Murtazayeva R.X. va boshqalar. Oʻzbekiston tarixi. Oʻquv qoʻllanma. – T.: Akademiya, 2010.
8. Eshov B.J. Oʻzbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. Darslik. – T.: Yangi asr avlodi, 2012.